

VII. TRANSPORT VA ALOQA

Yuk tashish. Avtomobil transportida 6,0 mln. tonna yuk tashilgan bo‘lib, bu 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 0,15 mln. tonnaga ko‘pdir. Yuk aylanmasi 95,7 mln. tn-km ga yetdi va bu o‘tgan- yilning mos dariga nisbatan 4,4 mln. tn-kmga ko‘p demakdir.

Yakka tartibdagи tadbirkorlarning avtomobil transportining yuk aylanmasi 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 100,7 % bo‘lib, 32,6 mln. tn-km ni tashkil qildi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 34,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yuk tashish bo‘yicha ulushi 81,7 % ni tashkil etgan.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo‘yicha ifodalanishi

	2022- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Tashilgan yuk, mln. tn.	6,0	102,5

shu jumladan:

Avtomobil transportida	6,0	102,5
------------------------	-----	-------

Yuk aylanmasi, *mln. tn-km.* 95,7 104,9

<i>shu jumladan:</i>

Avtomobil transportida 95,7 106,9

Yo‘lovchi tashish. 2022- yil yanvar-mart oylarida barcha transport turlari tomonidan 106,5 mln. kishi tashilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 102,2 % ga ko‘paygan.


Yo‘lovchi aylanmasi hajmi 2 149,2 mln. yo‘lovchi-km, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 101,5 % ni tashkil etdi.

Yirik korxonalar bo‘yicha:

Viloyatda kuzatilayotgan davrda avtotransport ishi bo‘yicha hajmli korxonalar soni 49 tani tashkil etib, ular tomonidan quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar shakllandi:


Tashilgan yuklar hajmi 0,4 mln. tonna, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 118,2 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 6,0 %);

Yuk aylanmasi hajmi 16,8 mln. tn-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,5 % ni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 17,6 %);



Tashilgan yo'lovchilar hajmi 1,8 mln. yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 87,4 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 1,7 %);


Yo'lovchi aylanmasi hajmi 109,7 mln. yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 7,6 %).



Yo‘lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 101,5 % ga ko‘payib, 2 117,5 mln. yo‘lovchi-km ni tashkil qildi.



2 117,5 mln yo‘lovchi-km



101,5 %

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yo‘lovchi tashish bo‘yicha ulushi 97,6 % ni tashkil etgan.

Kichik biznesning yo‘lovchi tashishda ulushi

• 97,6 %

Xususiy yo‘lovchi tashuvchilar avtomobil transportida yo‘lovchi aylanmasi 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 103,0 % bo‘lib, 1 981,2 mln. yo‘lovchi-km ni tashkil qildi. Yo‘lovchi aylanmasining umumiylaj hajmida xususiy yo‘lovchi tashuvchilarning ulushi 92,2 % ni tashkil etdi.